

Inayatov Jaxongir G'apurjonovich
Sarbon universiteti Ijtimoiy - gumanitar
fanlar kafedrası dotsenti, tarix
fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)

O'ZBEKISTONDA FOTOGRAFIYA SAN'ATI TARIXI RIVOJLANISHINING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston hududida fotografiya san'atining shakllanishi, evolyutsiyasi va ijtimoiy-madaniy taraqqiyot bosqichlari tarixiy va nazariy yondashuv asosida kompleks tahlil qilinadi. Tadqiqotda fotografiya XIX asr oxiridan boshlab faqat badiiy ifoda vositasi emas, balki tarixiy jarayonlarning vizual hujjatli guvohi sifatida shakllangan ijtimoiy-madaniy fenomen sifatida ko'rib chiqiladi.

Maqolada Rossiya imperiyasi davridagi ilmiy ekspeditsiyalar, mahalliy va xorijiy fotografik amaliyotlar, etnografik tasvirlar hamda Xudoybergan Devonov ijodi orqali milliy fotografiyaning shakllanish jarayoni tahlil etiladi. Shuningdek, sovet davrida fotografiyaning ideologik vositaga aylanishi, uning propagandistik funksiyalari va "yangi sovet insoni" obrazini yaratishdagi o'rni ilmiy asosda yoritiladi.

Kalit so'zlar. Fotografiya san'ati, vizual antropologiya, etnografik fotografiya, Xudoybergan Devonov, Rossiya imperiyasi, Prokudin-Gorskiy, sovet fotografiyasi, madaniy identitet, tarixiy xotira, vizual hujjatlar, fotoarxivlar, ijtimoiy-madaniy transformatsiya.

СПЕЦИФИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ИСТОРИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ ИСКУССТВА ФОТОГРАФИИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация. В данной статье на основе историко-теоретического подхода проводится комплексный анализ процессов формирования, эволюции и этапов социально-культурного развития искусства фотографии на территории Узбекистана. В исследовании фотография рассматривается с конца XIX века не только как средство художественного выражения, но и как социально-культурный феномен, выступающий визуальным документальным свидетельством исторических процессов.

В статье анализируются процессы становления национальной фотографии через научные экспедиции периода Российской империи, местные и зарубежные фотографические практики, этнографические изображения, а также творчество Худайбергана Деванова. Также научно рассматривается превращение фотографии в идеологический инструмент в советский период, её пропагандистские функции и роль в формировании образа «нового советского человека».

Ключевые слова: искусство фотографии, визуальная антропология, этнографическая фотография, Худайберган Деванов, Российская империя, Прокудин-Горский, советская фотография, культурная идентичность, историческая память, визуальные документы, фотоархивы, социально-культурная трансформация.

SPECIFIC CHARACTERISTICS OF THE HISTORICAL DEVELOPMENT OF PHOTOGRAPHY ART IN UZBEKISTAN

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the formation, evolution, and stages of socio-cultural development of photographic art in Uzbekistan based on a historical and theoretical approach. In this study, photography is considered from the late 19th century not only as a means of artistic expression but also as a socio-cultural phenomenon serving as a visual documentary witness of historical processes.

The article examines the formation of national photography through scientific expeditions of the Russian Empire period, local and foreign photographic practices, ethnographic imagery,

as well as the work of Khudoybergan Devanov. It also scientifically explores the transformation of photography into an ideological instrument during the Soviet period, its propaganda functions, and its role in constructing the image of the "new Soviet man".

Keywords: photographic art, visual anthropology, ethnographic photography, Khudoybergan Devanov, Russian Empire, Prokudin-Gorsky, Soviet photography, cultural identity, historical memory, visual documents, photo archives, socio-cultural transformation.

Fotografiya san'ati XIX asr oxirlariga kelib, O'zbekiston hududida nafaqat texnologik taraqqiyot mahsuli sifatida, balki tarixiy-madaniy jarayonlarni vizual tarzda idrok etishning innovatsion shakli sifatida namoyon bo'la boshladi. Ayniqsa, bu jarayon Rossiya imperiyasining siyosiy-ekspansion strategiyasi doirasida O'rta Osiyo mintaqasiga yuborilgan turli xorijiy hamda rus ilmiy ekspeditsiyalari faoliyati bilan bevosita bog'liqdir. Mazkur ekspeditsiyalar tomonidan yaratilgan ko'plab fotografik hujjatlar o'z davrining ijtimoiy, etnik va madaniy ko'rinishlarini tasvirlashda noyob manba sifatida ajralib turadi. Ushbu vizual materiallarda Buxoro yahudiylari, Lyuli etnik guruhlar, Xiva arqonbozlari, hunarmandlar, bozor savdogarlari va hatto hukmron tabaqalarga mansub shaxslarning portretlari o'z aksini topgan bo'lib, ular orqali mintaqaning murakkab sotsial tuzilmasi, madaniy xilma-xilligi hamda tarixiy kontekstdagi voqeliklar haqida ilmiy tahlil yuritish imkoniyati yuzaga keladi.

Fotografiya san'atining O'zbekistondagi rivojlanish jarayoni, zamonaviy vizual madaniyatning muhim tarkibiy qismi sifatida, ko'p qatlamli tarixiy, madaniy va texnologik omillar kesishmasida shakllangan murakkab fenomen sifatida tahlil qilinishi lozim. XIX asr oxiri va XX asr boshlari oralig'idagi davrda fotografiya nafaqat tasviriy vosita sifatida, balki madaniy identitetni shakllantiruvchi, tarixiy xotirani hujjatlashtiruvchi, ijtimoiy jarayonlarni aks ettiruvchi omil sifatida jamiyat hayotida barqaror o'rin egalladi [2].

O'zbek fotografiyasining vujudga kelishi, avvalo, Markaziy Osiyoning Rossiya imperiyasi tarkibiga kiritilishi va bu orqali Yevropa texnologiyalarining mintaqaga kirib kelishi bilan bevosita bog'liq. Fotografiyaning dastlabki kirib kelish shakli etnografik va topografik hujjatlashtirish, ya'ni mustamlakachilikni vizual asoslarga tayanib mustahkamlash ehtiyoji bilan bog'liq edi. Bu davrda yirik ilmiy ekspeditsiyalar (masalan, S.F. Oldenburg boshchiligidagi safarlar) orqali olingan minglab fotosuratlar, nafaqat tarixiy, balki vizual-antropologik material sifatida bugungi kunda katta ilmiy qadrga ega. Shu tariqa, fotografiya san'ati ilk bosqichlarda tashqi kuchlar tomonidan olib kirilgan, ammo tez orada ichki ijtimoiy-madaniy muhitda o'ziga xos shakllanish bosqichiga o'tadi [3].

Xudoybergan Devonov shaxsida esa biz bu tashqi vizual texnologiyaning ichki ijtimoiy sub'ekt tomonidan o'zlashtirilgan va milliy madaniyat kontekstida qayta kodlangan holatini kuzatamiz. Devonov, nafaqat birinchi o'zbek fotografi, balki fotografiya va kinematografiya orqali tarixni, xalq urf-odatlarini, diniy-estetik qadriyatlarni badiiy vosita orqali ifodalagan madaniy vositachidir. Uning suratlarida zamonaviy etnografik uslub bilan badiiy kompozitsiya uyg'unlashgan bo'lib, bu, fotografiyani tasodifiy hujjat emas, balki tarixiy-estetik manbaga aylantirgan. Devonov ijodi orqali fotografiya O'zbekistonda avtonom badiiy faoliyat sifatida shakllanib bordi va ijtimoiy ahamiyat kasb eta boshladi.

XX asrning dastlabki o'n yilliklarida fotografiya san'ati milliy va sotsialistik paradigmaning kesishgan nuqtasida faoliyat yuritdi. Sovet mafkurasi fotografiyani kuchli ideologik vosita sifatida foydalanar ekan, bu yo'nalishdagi ijodkorlar o'z san'atini hokimiyat ijtimoiy buyurtmasi doirasida olib borishga majbur edilar. Max Penson, B. Kudyayrov, G. Zelma kabi ijodkorlar ijodiy evolyutsiyasida fotografiya ikki qatlamli funktsiya kasb etdi: birinchidan, rasmiy mafkuraviy vizual propaganda vositasi sifatida, ikkinchidan, estetik va psixologik ekspressiyani ifodalovchi badiiy ob'ekt sifatida. Mazkur bosqichda fotografiya konstruksionizm, sotsrealizm, modernistik formalar bilan tajriba qilish orqali yangi vizual paradigmalar yo'l ochdi.

Ayniqsa, Penson suratlarida inson mehnati, jamiyatdagi sotsial dinamikani ochib berish bilan birga, badiiy obraz orqali arxitektura, tanlovli kadr va yorug'lik-kompozitsiya tizimida chuqur mahorat namoyon bo'ladi. Shu jihatdan qaralganda, bu davr o'zbek fotografiyasi uchun ichki badiiy so'rov va tashqi mafkuraviy buyurtma o'rtasida turgan, lekin har holda vizual

estetikaning chuqur tajriba maydoniga aylangan davr bo'ldi. Fotografiya san'ati O'zbekiston hududida dastlab etnografik va topografik ekspeditsiyalar doirasida amaliy qo'llanila boshlangan bo'lib, uning dastlabki vazifasi mintaqaning ijtimoiy, madaniy va geografik muhitini vizual hujjatlashtirishdan iborat edi [9].

Ushbu jarayon ayniqsa Rossiya imperiyasi tomonidan tashkil etilgan ilmiy-ma'rifiy ekspeditsiyalar doirasida faol rivoj topdi. Anton Murenko, Stanislav Dudin, Sergey Prokudin-Gorskiy va Frants Orde kabi foto-sayohatchilar tomonidan yaratilgan fotografik materiallar O'rta Osiyoning murakkab sotsial-iqtisodiy tuzilmasini, etnik xilma-xilligini va madaniy hayotini ilmiy jihatdan tahlil qilish imkonini beruvchi noyob vizual hujjatlar majmuasini tashkil etadi.

Ushbu fotografik manbalar faqatgina san'at yoki texnologik taraqqiyot yutuqlari sifatida emas, balki o'sha davrning siyosiy geostrategik manfaatlarini aks ettiruvchi ideologik vosita sifatida ham talqin etilishi lozim. Ayniqsa, Prokudin-Gorskiy kabi arboblardan amalga oshirilgan loyihalarda fotografiya vositasida imperiyaning "ma'muriy va madaniy integratsiya" siyosatini asoslashga urinishlar seziladi. Ularning ishlari orqali mahalliy aholining mehnat faoliyati, kiyim-boshi, uy-joy arxitekturasini va diniy an'analari aks ettirilgan bo'lsa-da, bu tasvirlar ko'pincha tashqi kuzatuvchining qarashlarini, ya'ni g'ayrioddiy lashtirish va "o'zgachalik"ni belgilovchi estetik qarashlarni o'zida mujassam etgan.

Mazkur vizual manbalar bugungi kunda Rossiya Geografiya Jamiyati fondlari, Imperator arxivlari, shuningdek, turli xorijiy kolleksiyalar, jumladan, AQSh va Yevropa kutubxona va muzeylarida saqlanmoqda. Ular nafaqat tarixiy faktlarni tasdiqlovchi vizual hujjat, balki ilmiy diskurs doirasida mustamlakachilikning epistemologik izlarini o'rganish uchun ham muhim empirik asos bo'lib xizmat qiladi. Shu bois, bu turdagi fotografik materiallarni zamonaviy postkolonial tahlil yondashuvlari asosida qayta ko'rib chiqish, tarixiy haqiqatni ko'proq mahalliy nuqtai nazardan talqin etishga imkon yaratadi [7].

Fotografiya texnologiyasining O'zbekiston hududida joriy etilishi dastlab harbiy-strategik va sanoat-texnik ehtiyojlar bilan uzviy bog'liq bo'lgan. XIX asr oxiriga kelib, fotoapparatlar imperatorlik ma'muriyati tomonidan topografik xaritalar tuzish, istehkomlar va inshootlarning holatini qayd etish, shuningdek, bosib olingan hududlarning vizual inventarizatsiyasi kabi amaliy maqsadlarda keng qo'llanilgan. Biroq ushbu texnologiyaning harbiy va sanoat doiralaridan chiqib, ijtimoiy va madaniy hayot sohalariga kirib kelishi bilan fotografiya asta-sekin hujjatli tasvir yaratish, portret san'ati, ijtimoiy marosimlarni abadiylashtirish hamda kundalik hayotni vizual arxivlashtirishning muhim vositasiga aylandi.

Toshkent, Samarqand va Xiva kabi urbanistik jihatdan markaziy shaharlar bu jarayonning ilg'or maydonlariga aylanishi bejiz emas. Aynan ushbu shaharlarda fotoatelyelar ochilishi bilan fotografiya xizmatlari bir tomondan iste'molchilik madaniyati elementiga, boshqa tomondan esa modernlik diskursining vizual ifodasiga aylandi. Fotoatelyelarning faoliyati jamiyatda yangi ijtimoiy aloqalar, estetik ideal va shaxsiy identifikatsiya shakllarining shakllanishiga xizmat qildi. Ular orqali ijtimoiy tabaqalanish, jins va millatga oid vizual stereotiplar mustahkamlanib bordi. Mazkur tarixiy jarayonda, mahalliy fotografik amaliyotning shakllanishi va rivojlanishida Ilhomjon Inog'omjon Hojiyevning nomi alohida e'tiborga loyiqdir.

1902-yilda musulmon aholiga mo'ljallangan ilk fotosalon o'zining zamonaviy zaminda diniy va madaniy chegaralarni moslashtirgan faoliyati bilan ajralib turadi. Ruqsatnoma asosida faoliyat yuritgan bu fotosalon musulmon jamiyatida fotografiyaga nisbatan mavjud bo'lgan diniy-etnik shubha va ijtimoiy qarshiliklarni bartaraf etishda muhim vosita bo'ldi. Bu holat mahalliy fotografiyaning nafaqat texnologik moslashuvchanligi, balki ijtimoiy-madaniy muvofiqlashtirish imkoniyatlarini ham ochib beradi. Shu bois, Hojiyevning faoliyatini faqat texnik yutuq sifatida emas, balki mahalliy modernizmning vizual shakllanishidagi ijtimoiy-madaniy agentlik deb talqin etish mumkin. Bu esa, fotografiyaning O'zbekiston tarixiy makonida g'arbona texnologiya sifatidagi import mahsulotdan, ichki ijtimoiy va estetik talablarga moslashtirilgan madaniy amaliyotga aylanganligidan dalolat beradi [6].

Sovet davri fotografiyaning funksional va semantik doirasini tubdan qayta belgilagan davr sifatida alohida e'tiborga loyiqdir. Bu davrda fotografiya faqatgina estetik yoki hujjatli vosita bo'lib qolmay, balki davlat mafkurasining asosiy tashuvchisi, ommaviy ongni shakllantirish va ijtimoiy reallikni konstruksiyalashda faol qatnashuvchi propagandistik apparatga aylandi. Ayniqsa Sovet

Ittifoqining milliy respublikalardagi “madaniy inqilob” siyosati doirasida fotografiya ideologik rejim tomonidan nazorat qilinuvchi va yo‘naltiriluvchi vizual diskurs sifatida shakllandi. Mazkur tarixiy kontekstda Xudoybergan Devonovning ijodi alohida e‘tibor talab qiladi [5]. U o‘z faoliyatida faqat suratkash sifatida emas, balki O‘zbekiston kinematografiyasi tarixida hujjatli kino san‘ati asoschilaridan biri sifatida ham tanilgan. Devonovning suratlari faqatgina vizual hujjatlar emas, balki zamonaviy tarixshunoslikda mintaqaning sotsial, madaniy va siyosiy transformatsiyalarini tahlil qilishda muhim empirik asos bo‘lib xizmat qiladi. Uning ishlari orqali XX asr boshlarida sodir bo‘lgan sivilizatsion o‘zgarishlar, yangi sotsial arxetiplarning shakllanishi va Sovet modernizmining vizual konstruksiyalari ochiq namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, ushbu davrda fotografiyaning institutsional ommalashuvi jarayoni ham kuzatildi. Toshkent, Samarqand va boshqa yirik shaharlarda tashkil etilgan o‘quv fotografiya kurslari, badiiy ijod uyushmalari va fotojamiyatlar ushbu san‘at turining nafaqat texnik, balki estetik va ijtimoiy ahamiyatini kuchaytirdi. Bu tashkilotlar orqali fotografik amaliyot markazlashtirilgan nazoratga bo‘ysundirildi, lekin ayni paytda u ommaviy estetik tarbiyaning vositasiga, “yangi sovet odam”ning ideal obrazini shakllantirish quroliga aylantirildi [6].

Sovet mafkurasi doirasida fotografiya realizm estetikasi asosida qurilgan bo‘lib, unda tasvir obyektiv haqiqatni emas, balki ideologik jihatdan maqbul bo‘lgan reallikni namoyon etishi talab etilardi. Natijada, fotografik obrazlar jamiyatda mavjud bo‘lgan ijtimoiy ziddiyatlarni yashirish, zamonaviylik, taraqqiyot va sotsial tenglik kabi ideallarning vizual ifodasiga aylantirildi. Bu jarayonda fotografiyaning madaniy kuchi uning “haqiqat”ni aks ettirish salohiyati bilan emas, balki “haqiqat”ni yarata olish qobiliyati bilan belgilandi [7].

Xulosa. O‘zbekiston hududida fotografiya san‘atining rivojlanish jarayoni murakkab tarixiy, siyosiy va madaniy omillar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, u bir necha bosqichli evolyutsion yo‘lni bosib o‘tgan. Dastlab mustamlakachilik davrida etnografik va topografik hujjatlashtirish vositasi sifatida shakllangan fotografiya keyinchalik mahalliy ijodkorlar tomonidan o‘zlashtirilib, milliy madaniy ifoda shakliga aylangan.

Xudoybergan Devonov faoliyati orqali fotografiya O‘zbekistonda nafaqat texnik yangilik, balki madaniy identitetni ifodalovchi mustaqil badiiy tizim sifatida rivojlandi. Sovet davrida esa u ideologik nazorat ostidagi vizual propaganda vositasiga aylangan bo‘lsa-da, shu bilan birga tarixiy va badiiy ahamiyatini ham saqlab qoldi.

Umuman olganda, fotografiya O‘zbekiston tarixiy-madaniy jarayonlarini hujjatlashtiruvchi, ijtimoiy xotirani shakllantiruvchi va vizual tafakkurni rivojlantiruvchi muhim ilmiy manba sifatida baholanishi lozim. Zamonaviy raqamli davrda esa uning funksiyasi yanada kengayib, global vizual madaniyatning ajralmas qismiga aylanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov N. Xudoybergan Devonov: Birinchi o‘zbek fotografi. – Toshkent: San‘at, 2019. – 152 b.
2. Морозов С. Русские путешественники-фотографы. – Москва: Географгиз, 1953. – 312 с.
3. Allshouse R. Photographs for the Tsar. – New York: Dial Press, 1980. – 278 p
4. Brumfield W. The Color Photographs of Prokudin-Gorskii // Visual Resource. – 1990. – Vol. 6. – P. 243–255.
5. Sontag S. *On Photography*. – New York: Farrar, Straus and Giroux, 1977. – P. 88–92.
6. Inoyatov J.G‘. *Turkistonda fotografiya san‘ati: shakllanishi va rivojlanish xususiyatlari*. – Toshkent, 2023. – B. 92–96.
7. Edwards E. *Raw Histories: Photographs, Anthropology and Museums*. – Oxford: Berg, 2001. – P. 130–135.
8. Allshouse R. *Photographs for the Tsar*. – New York: Dial Press, 1980. – P. 12–18.
9. Brumfield W. *The Color Photographs of Prokudin-Gorskii*. – Visual Resource, 1990. – P. 245–250.